

YOZMA NUTQNING RIVOJLANISHI

Shoiraxon Xasanboyeva

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani

1-sonli o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada nutq tushunchasi, nutq o'stirish metodikasi, uning ahamiyati, o'quvchilar nutqini rivojlantirish yo'llari, metodikasi, nutqni egallashning qator aspektlari, nutq o'stirish yo'nalishlari, o'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan talablar, ta'lim-tarbiya jarayonida nutq o'stirishga erishish orqali o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, boshlang'ich sinf o'quvchilari, metod, qo'llanma, g'oya, innovatsiya, pedagog.

Аннотация: В статье понятие речи, методика развития речи, ее значение, способы и методы развития речи учащихся, ряд аспектов овладения речью, направления развития речи, четко определены требования к развитию учащихся. Речь идет о жизненных навыках, которые должны формироваться у учащихся путем достижения речевого развития в процессе обучения.

Ключевые слова: речь, младшие школьники, метод, пособие, идея, новаторство, педагог.

Abstract: In the article, the concept of speech, the methodology of speech development, its importance, the ways and methods of developing students' speech, a number of aspects of speech acquisition, the directions of speech development, clearly defined requirements for the development of students' speech, It is about life skills that should be formed in students by achieving speech development in the education process.

Keywords: speech, elementary school students, method, manual, idea, innovation, pedagogue.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqdagi kamchiliklarini tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Qo'pol tanbeh, noto'g'ri tanqid o'quvchilar o'rtasidagi yaxshi muomalani buzishi, o'quvchini o'rinsiz ranjitishi mumkin, shuning uchun ham o'qituvchi, nutqiy muomala qilishda pedagogik odob talablariga rioya qilishi, o'quvchilarning insoniy qadr-qimmati, obro'sini saqlashga intilish zarur. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari bo'yicha to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalap lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o'rgatadi. O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda o'quvchi nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular predmet, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, o'zak, so'z, so'z yasovchi, forma yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap; turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi terminlarni bilib oladilar. Hozirga qadar yoshlarga ta'lim – tarbiya berishda amaliy yordam beruvchi, bilim berish jarayonini soddalashtiruvchi bir qancha ilmiy ishlar, nomzodlik dissertatsiyalari, qo'llanma va maqolllar yaratilganligi ma'lum. Biroq o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni mustaqil ravishda bilim olishga, mustaqil ishlashga qaratilgan ilmiy ishlar, ularning yozma nutqi kamchiliklari xususida olib borilgan ilmiy ishlar hozirgi vaqtda dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. O'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, yozma nutqini rivojlantirish orqali ularni mustaqil ishlashga, mustaqil fikrlashga, mustaqil tajriba o'tkazishga, mustaqil xulosa chiqarishga undaydi hamda o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, tafakkurini kengaytiradi, ilmiy solohiyatlarini oshiradi. SHuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil ishlashga, savodli yozishga o'rgatishning ahamiyati juda ham kattadir. Nutq — fikr bayon qilish vositasi bo'lib, og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Tafakkur nutqiyordamida ro'y berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar. Og'zaki nutq pauza, urg'u, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib yetsa, yozma nutq harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar, gaplarni grammatik jihatdan aniq va tovushlarni bayon qilish orqali yetib

boradi. Og‘zaki nutqning yozma nutqtsan yana bir farqi shuki, og‘zaki nutqni eshitamiz, yozma nutqni qo‘ramiz va o‘qiymiz. Yozma nutq murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘p vaqt mehnat talab qiladi. Sintaksis jihatdan qaraganda yozma nutq eng to‘liq va mukammal nutqdir. Bu nutq ixtiyoriy fikrimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Yozma nutq og‘zaki nutq asosida rivojlanadi. Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilar tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. SHuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so‘z, gap, bog‘lanishli nutq kabi qismlarni o‘z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo‘limlari: «Xat-savod o‘rgatish va nutq o‘stirish», «o‘qish va nutq o‘stirish», «Grammatika, imlo va nutq o‘stirish» deb nomlangan.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin. SHuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy operastiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z (so‘z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toxirjonovna, O. M. (2021, October). SO‘Z TURKUMLARINI TASNIFLASHDA INTERFAOL METODLARDAN UNUMLI FOYDALANISH JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY USULLARNING QOLLANISHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 219-224).
2. Valijonovna, K. I. ., Rakhmatjonovich, T. D. ., Mukhtoralievna, Z. S. ., & kizi, S. G. G. . (2022). Informational Technology at Education. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 262-266.
3. Valijonovna, X. I. ., & qizi, X. M. B. . (2022). Improving of Motivation for Studying in Primary School. European Multidisciplinary Journal of Modern



Science, 6, 131–137.

4. Акбарова, З. А. (2020). ИЗ ИСТОРИИ АНАЛИЗА ОТРАЖЕНИЯ МОДЕЛИ МИРОЗДАНИЯ В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ. In НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 4-10).
5. Акбарова, З. А. & Ёрмаматова, О. Ш. (2019). Табиий тил ва унинг функциялари ҳақида. Молодой ученый, (29), 164-166.

